

DAVLAT MOLIVASI TIZIMIDA DA VLAT MOLIVAVIY NAZORATI

Abduraximov Alisher Dilmurod O'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistri*

Annotatsoya: *Mamlakatimizda davlat moliyasini tashkil etish va sog'lomlashtirish, byudjet daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan byudjet siyosati tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat miqyosida dasturlarning qabul qilinishi o'z ijobiy natijalarini bermoqda.*

Abstract *To organize and improve public finances in our country, to ensure the stability of budget revenues, the perfect ratio and integrity of the sources of their formation. At the current stage of the reforms in the budget policy system implemented in the Republic of Uzbekistan, the adoption of programs at the state level in the conditions of modernization of the economy is giving its positive results.*

Avvalambor, byudjet jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, "Byudjet jarayoni — Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Byudjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va byudjet tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi hamda byudjet jarayonining mazmunini belgilashda byudjetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat byudjetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim rol o'ynaydi. Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

-byudjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish); -byudjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash; -byudjetni ijro etish;

-byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini byudjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) byudjetni ijro etishga (byudjet davri) va sakkiz oyga yaqini byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Byudjet jarayonini tashkil etishda quyidagi printsiplarga rioya qilinadi:

Yagonalik printsiipi – bu erda yagona huquqiy baza, yagona byudjet klassifikatsiyasi, mamlakat konsolidatsiyalashtirilgan byudjetini tuzishda zarur bo'ladigan statistik va byudjet ma'lumotlari uchun byudjet hujjatlari shakllarining yagonaligi va pul tizimining yagonaligi orqali ifodalanadi.

Mustaqillik printsiplari – byudjet jarayonini amalga oshirishning uning har bir ishtirokchisi uchun mustaqil bo'lganligi bilan belgilanadi. Unga muvofiq, bu jarayonning ishtirokchilari daromadlarning o'z va tartibga soluvchi manbalari hamda ulardan foydalanishning yo'nalishlarini mustaqil ravishda aniqlash huquqiga egadirlar. 3. Balans metodi printsiplari – bu erda byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasida to'g'ri nisbatlarni o'rnatishda gavdalanadi. Unga rioya qilinishi byudjetning barqarorligini va xo'jalik sohalari o'rtasida mablag'larni taqsimlashda zaruriy proportsiyalarni ta'minlashi kerak. Bu metodning muhim sharti byudjet xarajatlarining daromadlariga muvofiqligi va moliyaviy rezervlarni yaratishdir. Bu printsiplari moliyaviy siyosatning bosh maqsadi hisoblanadi.

Byudjet jarayonining Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bosqichida quyidagilar amalga oshiriladi

- byudjetning hajmi;
- navbatdagi (kelgusi) yil uchun soliq va pul-kredit siyosati;
- byudjet mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va byudjet defitsitini qoplash metodlari;
- byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromadlarni taqsimlash. Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)da mamlakatning istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishi, inflyatsiya darajasiga, aholining bandlik darajasi, sotsial qo'llab-quvvatlashdan foydalanayotgan aholi soni hisobga olinadi.

Byudjetni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) bosqichida mamlakatning oliy ijroiya organi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullanganidan so'ng Davlat byudjetining loyihasi muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) uchun qonunchilik organi bo'lgan Oliy Majlisga taqdim etiladi. Odatda, byudjetning loyihasi Oliy Majlisning har bir palatasida (oldin quyi palata bo'lgan Qonunchilik palatasida va yuqori palata sanalgan Senatda) alohida-alohida muhokama qilinadi.

Byudjet jarayonining so'nggi bosqichi, ya'ni byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlashda davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet ijrosining yakuni (natijalari)ni o'zida ifoda etadi. Shu munosabat bilan Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi kerak.

Xulosa: Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Davlat byudjeti moliya yili boshlanganidan keyin qabul qilingan holda xarajatlarning umumiy summasi moliya yili davomida qabul qilingan Davlat byudjeti ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirilishi kerak. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etmoqlari lozim.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston

Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Byudjet tashkilotlarini mablag’ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O’zR Vazirlar Mahkamasining 16.06.07 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri).

2. “Davlat byudjetining g’azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarori. PQ-594-son, 28.02.2017 y.

3. “O’zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 04.12.2017.